

ZAMONAVIY JAMIYATDA XOTIN-QIZLAR SUITSIDI: SABAB VA YECHIMLARI*Nazarova Nilufar Jo'rayevna**TDTrU s.f.n. (PhD) dotsent v.b., ilmiy rahbar**Maxamatiminova Durdonaxon Farxot qizi**TDTrU Sotsiologiya yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy jamiyatda ayollar orasida o'z joniga qasd qilish holatlarining ortib borishi, ushbu holatlarning asosiy sabablari va ularni bartaraf etish yo'llari tahlil qilingan. Maqolada oilaviy muammolar, ijtimoiy bosim, iqtisodiy qiyinchiliklar, psixologik zo'ravonlik va axborot muhitining salbiy ta'siri asosiy omillar sifatida ko'rsatilgan. Shuningdek, psixologik yordam tizimini kuchaytirish, huquqiy himoya, axborot siyosatini sog'lomlashtirish va ayollarni iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlash bo'yicha takliflar berilgan.

Аннотация: В данной статье анализируется рост числа самоубийств среди женщин в современном обществе, основные причины этих случаев и пути их устранения. В статье в качестве основных факторов указаны семейные проблемы, социальное давление, экономические трудности, психологическое насилие и негативное влияние информационной среды. Также были внесены предложения по усилению системы психологической помощи, правовой защиты, оздоровлению информационной политики и экономической поддержке женщин.

Abstract: This article analyzes the increasing number of suicides among women in modern society, the main causes of these cases, and ways to eliminate them. The article identifies family problems, social pressure, economic hardship, psychological violence, and the negative impact of the information environment as key factors. Proposals were also made to strengthen the psychological support system, provide legal protection, improve information policy, and provide economic support to women.

Kalit so'zlar: ayollar, o'z joniga qasd, psixologik bosim, oilaviy muammolar, zo'ravonlik, ijtimoiy xavfsizlik, ruhiy salomatlik, jamiyat.

Ключевые слова: женщины, самоубийство, психологическое давление, семейные проблемы, насилие, социальная безопасность, психическое здоровье, общество.

Keywords: women, suicide, psychological pressure, family problems, violence, social security, mental health, society.

Bugungi globallashuv va axborot xuruji davrida inson psixologiyasi tobora zaiflashib bormoqda. Ayniqsa, zamonaviy jamiyatda ayollar orasida o'z joniga qasd qilish holatlarining ortib borayotgani jiddiy ijtimoiy muammolardan biriga aylangan.

Har yili dunyo bo'yicha yuz minglab ayollar turli omillar ta'sirida o'z hayotiga nuqta qo'yishga urinmoqda¹. Bu esa jamiyat salomatligiga, ijtimoiy barqarorlikka va oilaviy qadriyatlarga tahdid soladi. Ayollar orasida o'z joniga qasd qilish holatlarining ortishiga bir necha sabablar sabab bo'lmoqda. Ularning eng asosiylari quyidagilardan iborat:

1. Oilaviy muammolar – Nikohdagi kelishmovchiliklar, zo'ravonlik, er-xotin o'rtasidagi ishonchsizlik, qaynota-qaynonalar bilan bo'lgan kelishmovchiliklar ayolning ruhiy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi².

2. Ijtimoiy bosim va stereotiplar – Ayollardan "ideal ona", "sadoqatli turmush o'rtoq", "uy ishlari bilan shug'ullanuvchi ayol" kabi talablar ko'plab mamlakatlarda haligacha mavjud. Bu bosim ruhiy tushkunlikka olib keladi³.

3. Moliyaviy muammolar – Ishsizlik, iqtisodiy yetishmovchilik, yolg'izlik ayollarni ruhiy siquvga soladi.

4. Psixologik va jismoniy zo'ravonlik – Jinsiy tajovuz, oilaviy zo'ravonlik va haqoratlar ko'p hollarda ayollarning o'ziga bo'lgan ishonchini yo'qotishiga va ruhiy iztirobga tushishiga olib keladi.

5. Axborot muhitining salbiy ta'siri – Ijtimoiy tarmoqlarda solishtirish, yolg'on muvaffaqiyatlar, ijtimoiy faollikni haddan ziyod ulug'lash – bu omillar psixikasi zaif ayollarni depressiyaga olib kiradi.

Biroq hozirgi davrda bu borada hal etilishi zarur bo'lgan muammolar mavjud bo'lib, ular orasida ayniqsa oiladagi zo'ravonlik va gender tengsizlikka asoslangan tazyiq holatlarining ortib borayotganligi dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Gender zo'ravonlikning kuchayishi ko'p hollarda ijtimoiy ongda eskicha qarashlar, gender rollarning noto'g'ri talqin qilinishi, iqtisodiy va ijtimoiy omillar bilan izohlanadi. Ilgari ayrim hollarda odatiy hol sifatida baholangan zo'ravonlik bugungi zamonaviy jamiyatda ayollar huquqlarining ochiq buzilishi sifatida keskin tanqid qilinmoqda. Jumladan, BMTning "Xotin-qizlar" (UN Women) tashkiloti tomonidan tayyorlangan "2019–2020 yillarda dunyodagi ayollarning taraqqiyoti: o'zgaruvchan dunyodagi oilalar" nomli hisobotida oila nafaqat ijtimoiy institut, balki ko'plab hollarda insonning asosiy huquqlari buzilishi va gender tengsizligi ko'p uchraydigan makon sifatida ham qayd etilgan⁴.

Bugungi kunga kelib, dunyoning 130 dan ortiq mamlakatlarida oiladagi zo'ravonlikka qarshi qonunchilik mavjud bo'lib, bu muammoning xalqaro miqyosdagi dolzarbligini ko'rsatadi. O'zbekistonda ham xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini

¹ Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (WHO) hisobotlari, 2023-yil.

² O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi va Sog'liqni saqlash vazirligi materiallari, 2022.

³ Gender tengligi bo'yicha BMT (UN Women) ma'lumotlari, 2023.

⁴ UN Women. (2020). Progress of the World's Women 2019–2020: Families in a Changing World. <https://www.unwomen.org>

himoya qilish borasida sezilarli huquqiy asoslar yaratilgan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Oila kodeksi, 2019-yil 2-sentabrdagi O‘RQ-561-sonli “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi hamda O‘RQ-562-sonli “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi qonunlar bu yo‘nalishda asosiy normativ hujjatlardir.

Mazkur qonunchilik hujjatlarida “zo‘ravonlik” tushunchasi keng talqin qilinib, unga jismoniy, ruhiy, jinsiy yoki iqtisodiy ta’sir ko‘rsatish, shuningdek, bunday ta’sirni amalga oshirish bilan tahdid qilish orqali ayollarning hayoti, sog‘lig‘i, sha’ni, qadr-qimmati va huquqlariga tajovuz qiluvchi g‘ayrihuquqiy harakat (harakatsizlik)lar kiradi. Zo‘ravonlikning turlari sifatida quyidagilar belgilanadi: jinsiy zo‘ravonlik, jismoniy zo‘ravonlik, iqtisodiy zo‘ravonlik va ruhiy zo‘ravonlik.

Bundan tashqari, qonunchilikda “tazyiq” tushunchasi ham alohida ko‘rsatilib, u ma’muriy yoki jinoiy javobgarlikka sabab bo‘lmaydigan, biroq xotin-qizlarning sha’ni va qadr-qimmatini kamsitadigan, shilqimlik mazmunidagi harakatlar (yoki harakatsizliklar) deb tavsiflanadi.

Ushbu holatlar jamiyatda xotin-qizlarning erkinligi, huquqlari va xavfsizligini ta’minlash borasida hali qilinishi lozim bo‘lgan ishlar ko‘pligini ko‘rsatadi. Oila – jamiyatning asosiy bo‘g‘ini bo‘lganligi sababli, undagi zo‘ravonlik holatlarini bartaraf etish orqali sog‘lom ijtimoiy muhit va barqaror taraqqiyot sari muhim qadamlar tashlanadi.

Bu muammoga qarshi kurashish uchun kompleks yondashuv zarur. Quyidagi choralar samarali yechim bo‘la oladi:

1. Psixologik yordam tizimini kuchaytirish – Maktab, kollej, oliygoh, mehnat jamoalarida psixologik maslahat markazlarini faol ishlashiga sharoit yaratish lozim.

2. Oila va jamiyatda ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish – Oilaviy tarbiya, mehr-muhabbat, tushunish muhitini yaratish orqali ayollarni qo‘llab-quvvatlash zarur.

3. Huquqiy himoya va zo‘ravonlikka qarshi kurash – Ayollarga nisbatan zo‘ravonlik holatlariga “nol bardoshlik” siyosatini joriy etish, huquqiy savodxonlikni oshirish talab etiladi.

4. Axborot va media siyosatini sog‘lomlashtirish – Ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda ruhiy sihatni muhofaza qiluvchi, ayollarni ruhlantiruvchi va motivatsiya beruvchi materiallar ko‘paytirilishi lozim.

5. Ayollarning iqtisodiy mustaqilligini ta’minlash – Ish bilan ta’minlash, tadbirkorlikka jalb etish orqali ayol o‘zini jamiyatda kerakli va qadrlangan inson sifatida his qiladi.

Ayollar orasida o‘z joniga qasd qilish holatlarining oldini olish har birimizdan mas’uliyat va e’tibor talab etadi. Har bir ayol – ona, opa-singil, farzand tarbiyalovchi inson sifatida jamiyat uchun bebaho qadriyatdir. Ularning salomatligi, ruhiy holati va

xavfsizligini ta'minlash orqali sog'lom jamiyat sari yo'l ochiladi. Davlat, jamiyat va har bir fuqarolik pozitsiyasiga ega inson bu yo'lda faol bo'lishi shart.

Zamonaviy jamiyatda ayollar orasida o'z joniga qasd qilish holatlarining ortib borayotgani chuqur ijtimoiy, psixologik va iqtisodiy omillar bilan bog'liq. Asosan oilaviy muammolar, ruhiy bosim, gender tengsizligi, zo'ravonlik, iqtisodiy yetishmovchilik hamda ijtimoiy qo'llab-quvvatlovning sustligi bu muammoning asosiy sabablari hisoblanadi. Ayollar o'z muammolari bilan yolg'iz qolib, tegishli psixologik yoki huquqiy yordamga murojaat qilmasliklari oqibatida fojiaiy holatlar yuzaga chiqmoqda.

Ushbu holatni oldini olish uchun davlat, jamiyat va fuqarolik institutlari o'rtasida kuchli hamkorlik zarur. Eng avvalo, ruhiy salomatlikni asrash bo'yicha tizimli chora-tadbirlarni kuchaytirish, ijtimoiy-psixologik xizmatlarni rivojlantirish, ayollarni zo'ravonlikdan himoya qiluvchi mexanizmlarni mustahkamlash hamda gender tenglikka asoslangan ma'rifiy ishlarni kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, oiladagi tarbiya, ta'lim muassasalari va OAV orqali ayollarning ijtimoiy rolini qadrlash va ularga hurmat bilan munosabatda bo'lish madaniyatini shakllantirishda muammoni barvaqt oldini olishdagi asosiy yo'nalishlardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (WHO) hisobotlari, 2023-yil.
2. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi va Sog'liqni saqlash vazirligi materiallari, 2022.
3. Gender tengligi bo'yicha BMT (UN Women) ma'lumotlari, 2023.
4. UN Women. (2020). Progress of the World's Women 2019–2020: Families in a Changing World. <https://www.unwomen.org>
5. Nazarova N. J., Jumaniyazova N. S. The Role of Family on Preventing the Youth's Deviant Behaviours //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2023. – T. 3. – №. 1. – C. 854-859.